



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING AHAMIYATI

Shoira Abdumalikova

GulDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining pedagogic ahamiyati, bolalarning estetik didini dunyoqarashini vijodiy fikrlashni rivojlanishdagi roli tahlil qiladi. Sahnalashtirish orqali tarbiyalanuvchilarda ijodiy emotsoinal ko'nikmalar, nutq madaniyati va jamoviy faoliyatga bo'lgan qiziqish shakillanadi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim , sahnalashtirish, estetik tarbiya, ijodkorlik, nutq, ijtimoiy moslashuv , ko'nikma, jamoviy faoliyat.*

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizmi har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan. Bu yo'lda san'at vositalaridan , xususan, sahnalashtirish faoliyatidan keng foydalanish muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sahna –bu o'z dunyo qarashini ifoda etish, obrazlarni jonlantirish , til va nutq rivojlantirish maydonidir. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizmida innavatsion , bolani shaxs sifatida rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvlarga bo'lgan talab ortib bormoqda . Sahnalashtirish faoliyati esa ana shu talablarga to'liq javob beruvchi , bolalar qiziqishlari va imkoniyatlarini kengaytiruvchi samarali ta'lim shakli sifatida e'tirof etilmoqda . U bola dunyoqarashining kengayishiga , emotsoinal-intellektual rivojlanishiga va bo'lgan ishonchning ortishiga sabab bo'ladi.

ASOSIY QISM

1. Sahnalashtirishning tarbiyaviy va o'quv ahamiyati

Sahnalashtirish jarayonida bolalar ertak yoki hikoya asosida rollarni o'zlashtirib , o'zini turli obrazlarda tasavvur qilishni o'rganadi. Bu esa: ijodiy tafakurni oshiradi , nutqni boyitadi , jamoada ishlash ko'nikmalarini shakillantiradi , estetik tarbiyani kuchaytiradi.

2. Sahnalashtirish shakillari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quydagi shakillarda qo'llanadi:

Loyiha asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlar

Mini-dramma va pantomima mashg'ulotlari

Bolalar ijodidan chiqqan erkin daromatizatsiya

3. Pedagog faoliyatida sahnalashtirishning o'rni



Pedagog uchun sahnalashtirish bolalar bilan muloqot qilishning samarali usulidir. O'qituvchi: har bir bolaga individual yondashadi, ijtimoiy faollikni oshiradi, tarbiyaviy maqsadlarga erishishda sahna vositasida foydalanadi. Bolaning jamoalarda o'z fikrini erkin bimalol ifoda etish o'rganadi, turli xil harakter xususiyatlari shakillanadi.

4. Me'yoriy hujjatlar va amaliy asos

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizmini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori va boshqa tegishli me'yoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim mazmunini boyitishda san'at elementlariga alohida e'tibor qaratishni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati bolalar rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur faoliyat nafaqat estetik didni shakillantiradi, balki bolaning, nutq madaniyati, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiylashuv jarayoni, emotsional barqarorlik va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Sahnaga chiqish jarayonida bola o'zini erkin tutish, fikrini ifodalash, obraz yaratish, jamoa bilan ishlash va badiiy matnlarni tushunish kabi ko'plab kompetensiyalarni egallaydi.

Shuningdek, sahnalashtirish faoliyatini pedagogik jarayonga joriy etish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bolalarda milliy qadriyatlar, axloqiy normalar singdirish, badiiy adabiyotga mehr uyg'otish imkonini beradi.

Bu jarayon bolada ijodkorlikni rag'batlantiradi, mustaqil fikrlashga undaydi va unung shaxs sifatida shakillanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining samaradorligi bir qator pedagogik, psixologik va rivojlantiruvchi omillar bilan izlanadi. Eng avvalo, sahnalashtirish jarayoni bolaning emotsional-intellektual rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlovchi faoliyat turi hisoblanadi. Bola biror asarni sahnalashtirish jarayonida matn mazmunini tushunadi, syujetni eslab qoladi, personaj xatti-harakatlarni o'zlashtiradi va badiiy obraz yaratishga harakat qiladi. Bu jarayon esa xotira, diqqat, tasavvur, fikrlash jarayonlarning faollashishiga olib keladi.

Sahnada ishtirok etayotgan bola nutqini ifodali qilish, kerakli ohangni topish, pauzalarni to'g'ri qo'llash kabi nutq madaniyati elementlarini tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Nutqiy rivojlanishning kuchayishi esa uning keying bosqichlaridagi ta'lim jarayonlariga tayyorgarligini oshiradi. Shuningdek, sahnalashtirish mashg'ulotlarida bolalarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bola jamoa bilan ishlash, sheriklar bilan kelishish, rollarni taqsimlash, sahnadagi harakatlarning izchilligini saqlash kabi ko'nikmalarni egallaydi.



Pedagogik nazariyalarda sahnalashtirish faoliyati bolaning ijodkorlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi. Chunki sahnalashtirishda har bir bola mustaqil ravishda obraz yaratadi , tanishtirilgan rolga o'z ijodiy talqinini qo'shadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayoniga ijodiy dinamik olib kiradi va bolalarda san'atga bo'lgan mehr, estetik didni oshiradi.

Shunday qilib, sahnalashtirish faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun faqatgina o'yin yoki ko'ngilochar jarayon emas, balki ko'p qirrali pedagogik texnologiya bo'lib, u ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon bolalarda kommunikativ, ijodiy , estetik, axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakillantirib , ularning kelajakda ta'lim bosqichlariga puxta tayyor bo'lishiga yordam beradi.

XULOSA

Bu jarayon asosan bolalarni erkin va ijodiy ishlashga yordam beradi. Shuningdek , sahnalashtirish jarayonida bolalarda jamoada ishlash ko'nikmasi, o'ziga ishonch , tashabbuskorlik , o'z fikrini erkin ifodalash kabi ijtimoiy – emotsionalsifatlar rivojlanadi.

Shu bois sahnalashtirish faoliyatini maktabgacha ta'lim jarayonining uzviy qismi sifatida tashkil etish va muntazam takomillashtirib borish kun talabi hisoblanadi

Sahnalashtirish bolalarning o'zini har jabhada namayonetishlariga yordam beradi hamda o'z ko'nikmalarini shakillantirdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2019.
2. "ILK va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". - Toshkent: 2020.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi . - Toshkent: 2021
4. G'affarov T. Maktabgacha ta'limda teatr va drammatizatsiya. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2018